

“Hamkorbank” ATBda “35 yil - Biznes uchun ishonchli hamkor!” yutuqli aksiyasini joriy etish tartibi

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu tartib Hamkorbank tomonidan ishlab chiqilgan “**35 yil - Biznes uchun ishonchli hamkor!**” yutuqli aksiyasini joriy etish maqsadida aksiyani o‘tkazilish shartlarini, g‘oliblarni aniqlash hamda yutuqli sovrinni g‘oliblarga topshirish tartibini belgilaydi.

1.2. Aksiya tavakkalchilik asosida tashkil etilgan lotoreya o‘yini emas, aksiya ishtirokchilari mol-mulkini tavakkalchiligiga olib kelmaydi.

1.3. Aksiya ishtirokchisi bo‘lish majburiy emas.

1.4. Aksiya 2026-yil 20 avgustdan 2026-yil 31-oktabr qadar o‘tkaziladi. Aksiyada ishtirok etish shartlari, aksiyani o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi bankning hamkorbank.uz sayti orqali e‘lon qilib boriladi.

1.5. “Hamkorbank” ATB faqat fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirdagina mazkur tartib-qoidalariga o‘zgartirish kiritish yoki aksiyani muddatidan oldin to‘xtatish huquqiga ega. Bu haqda tegishli e‘lonlar 3 kun ichida hamkorbank.uz saytining yangiliklar qismida joylashtiriladi.

1.6. Aksiya tashkilotchisi: Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik-tijorat banki, O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, 170119, Bobur shoh ko‘chasi, 85. Aksiya bo‘yicha murojaatlar uchun: Aloqa markazi — 1809, veb-sayt — hamkorbank.uz.

2. Aksiya o‘tkazish muddati va manzili

2.1. Aksiyani o‘tkazish hududi: O‘zbekiston Respublikasi.

2.2. Aksiya o‘tkazish sanasi: 2026-yil 20 avgustdan 2026-yil 31-oktabrgacha (2 oy, 1 bosqich).

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada aksiya o‘tkaziladigan davr mobaynida quyidagi shartlarni bajargan amaldagi va yangi MKO‘B mijozlari ishtirok etadi:

Amaldagi mijozlar (ETB) uchun:

- yangi DBO orqali kamida 10 000 000 so‘m miqdorida operatsiyalarni amalga oshirish;
- quyidagi mahsulotlardan kamida bittasidan foydalanish:
 - ish haqi loyihasi bo‘yicha kamida 10 000 000 so‘m aylanmani ta‘minlash; yoki
 - korporativ kartani kamida 5 000 000 so‘m miqdorida to‘ldirish; yoki
 - ekvayring orqali kamida 10 000 000 so‘m tushumni ta‘minlash.

Yangi mijozlar (NTB) uchun (Aksiya boshlangan sanada bank hisob raqamiga ega bo‘lmagan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar.):

- Hamkorbankda hisobvaraq ochish;
- yangi DBO xizmatiga ulanish;
- yangi DBO orqali kamida 5 000 000 so'm miqdorida operatsiyalarni amalga oshirish.

3.2. Har bir mijoz aksiya shartlarini bajargan taqdirda aksiyada bir marotaba ishtirok etadi va unga avtomatik ravishda 1 (bitta) ishtirokchi raqami beriladi.

3.3. Aksiya shartlari bajarilgani tasdiqlangandan so'ng ishtirokchiga avtomatik ravishda 1 (bitta) ishtirokchi raqami beriladi hamda u sovrinlar o'yinida ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kiritiladi.

3.4. Aksiyada O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, ushbu Qoidalarda belgilangan talablarga javob bergan taqdirda ishtirok etishlari mumkin.

3.5. Aksiyada ATB "Hamkorbank" xodimlari hamda aksiyani tashkil etish va o'tkazishda bevosita ishtirok etayotgan shaxslarning qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi.

3.6. Sovrinlar o'yini amaldagi mijozlar (ETB) va yangi mijozlar (NTB) o'rtasida birga o'tkaziladi.

4. Ishtirokchilarning huquqlari va majburiyatlari

4.1. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy hisoblanadi.

4.2. Aksiyada ishtirok etish uchun mijoz ushbu Qoidalarining 3.1 -bandida belgilangan shartlarni to'liq bajarishi lozim.

4.3. Aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilarga avtomatik ravishda ishtirokchi raqami beriladi va ular sovrinlar o'yinida ishtirok etadilar.

4.4. Sovrinlar o'yini natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan ishtirokchi ushbu Qoidalariga muvofiq sovrinni olish huquqiga ega bo'ladi.

4.5. Aksiya g'oliblari o'zlarining familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lsa), foto va video tasvirlari hamda sovrinni topshirish jarayoniga oid materiallardan Bank tomonidan reklama va axborot maqsadlarida foydalanilishiga rozilik bildiradilar.

4.6. Sovrinni qabul qilish bilan bog'liq transport va boshqa qo'shimcha xarajatlar aksiya g'olibi tomonidan mustaqil ravishda qoplanadi.

4.7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 52-bobi talablariga muvofiq yutib olingan sovrin uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amaldagi qonunchilikka asosan to'lanadi.

5. Aksiya yutuq fondi

5.1. Aksiya doirasida quyidagi sovrinlar taqdim etiladi:

- Noutbuk ASUS VivoBook X1502VA-BQ827 (Intel Core i7-13620H, 16 GB RAM, 512 GB SSD, 15.6" FHD IPS) – 10 dona;

- Smartfon Apple iPhone 17 Pro Max 256 GB – 10 dona;

- Planshet Samsung Galaxy Tab S11 (SM-X730, 12/128 GB, Gray) – 10 dona.
- Aqlli soat Garmin Vivoactive 6 – 5 dona.

5.2. Sovgʻalar gʻoliblar aniqlangan sanadan keyin 10 ish kunida taqdim etiladi.

5.3. Har bir gʻolibga yuqoridagi sovgʻalardan biri yangi va kafolatlangan holda taqdim etiladi.

5.4. Gʻoliblarga yaroqsiz holdagi sovgʻalar berilmaydi.

5.5. Oʻzbekiston Respublikasi “Soliq kodeksi”ga asosan yutib olingan sovgʻa uchun barcha soliq va majburiy toʻlovlar aksiya gʻoliblari tomonidan toʻlanadi.

6. Aksiya reklamasi

6.1. “**35 yil - Biznes uchun ishonchli hamkor**” aksiyasi bankning barcha axborot resurslarida (veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, flayerlar va boshqalar) uzluksiz reklama qilinadi.

7. Aksiya gʻoliblarini aniqlash va taqdirlash

7.1 Aksiya gʻoliblarini aniqlash uchun maxsus komissiya tashkil etiladi. Komissiya tarkibi komissiya raisi va aʼzolaridan iborat boʻladi.

7.2 Aksiya gʻoliblarini aniqlash maxsus komissiya ishtirokida amalga oshiriladi.

7.3 Aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilar roʻyxati bank dasturidan olingan hisobotga asosan shakllantiriladi. Mijozlar ismi-shariflari random tartibida saralab olinadi va har bir ishtirokchiga alohida tartib raqam beriladi.

7.4 Aksiya gʻoliblari random.org yoki shu kabi tasodifiy tanlash generatori orqali aniqlanadi.

7.5 Aksiya gʻoliblarini aniqlash jarayoni ochiq va shaffof tarzda oʻtkazilishini taʼminlash maqsadida bankning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida translyatsiya qilinadi.

7.6 Aksiya gʻoliblari aniqlanganidan soʻng bank veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida eʼlon qilinadi.

7.7 Aksiya gʻoliblariga sovgʻalar, ular pul oʻtkazmalari olgan “Hamkorbank” ATB bank ofislari orqali aksiya gʻoliblari aniqlangan kundan soʻng 10 ish kunida taqdim etiladi.

7.8 Bank va aksiya ishtirokchilari oʻrtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yoʻli bilan hal etiladi.

7.9 Muzokaralar orqali hal etilmagan nizolar Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchiligida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

7.10 Yutuqlar gʻoliblarning oʻzlariga va ularning qonuniy vakillariga(notarial tasdiqlangan) ham taqdim etilishi mumkin.

7.11 Yutuqlar gʻoliblarga Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan taqdim etiladi.

7.12 G‘oliblar yutuqni olish chog‘ida o‘zlarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim qilib, daromad solig‘ini to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga olgan holda to‘lovni amalga oshiradilar.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Bank fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarini bajarish bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

8.2. Aksiya o‘tkazish shart-qoidalarini bo‘yicha batafsil ma’lumotni "Hamkorbank" ATB manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, 170119, Bobur shoh ko‘chasi, 85 — orqali, hamkorbank.uz sayti orqali yoki bankning Aloqa markazining 1809 qisqa raqamlarga murojaat qilish orqali olinishi mumkin.

8.3. Aksiyada ishtirok etuvchi mijozlar ushbu shart-qoidalarini qabul qilishlari lozim.

8.4. Aksiya shartlari e’lon qilingan hamkorbank.uz sahifasi aksiya yakunlangan kundan (2026-yil 31-oktabr) so‘ng kamida 6 (olti) oy davomida ochiq holda saqlanadi va foydalanuvchilar uchun mavjud bo‘ladi.